

## DIDAKTIKA – TA'LIM NAZARIYASI SIFATIDA

*Bayjonov Furqat Baxramovich*

*Alfraganus Universiteti*

*Pedagogika va psixologiya kafedrası dotsent v.b*

*Fayziyeva Muslima Abduvahob qizi*

*Alfraganus Universiteti 2-kurs talabasi*

[\*muslimafayziyeva0102@gmail.com\*](mailto:muslimafayziyeva0102@gmail.com)

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada didaktika – ta'lim nazariyasi haqida, didaktika bo'yicha olimlarning fikrlari, didaktikaning boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi, didaktik vositalar tushunchasi, ularning asosiy vazifalari va tasnifi ko'rib chiqiladi.*

***Kalit so'zlar.** Didaktika, o'qitish nazariyasi, ta'lim, didaktik vositalar, didaktik materiallar, didaktik qobiliyat, pedagog, model.*

***Абстрактный.** В данной статье рассматривается дидактика - теория образования, мнения ученых-дидактиков, взаимосвязь дидактики с другими дисциплинами, понятие дидактических средств, их основные задачи и классификация.*

***Ключевые слова.** Дидактика, теория преподавания, образование, дидактические средства, дидактические материалы, дидактические способности, педагог, модель.*

***Abstract:** This article discusses didactics - the theory of education, the views of scientists on didactics, the relationship of didactics with other disciplines, the concept of didactic tools, their main tasks and classification.*

***Keywords.** Didactics, teaching theory, education, didactic tools, didactic materials, didactic skills, pedagogue, model.*

Didaktika qadimgi yunoncha: διδακτικός, didaktikos — “o'rgatuvchi”, “ta'lim beruvchi”, “didasko” esa o'rganuvchi — pedagogikaning tarmog'i. “Ta'limning nazariy jihatları “ta'lim jarayonining mohiyati, tamoyillari,

qonuniyatlari, o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyati mazmuni, ta’lim maqsadi, shakl, metod, vositalari, natijasi, ta’lim jarayonini takomillashtirish yo‘llari”ni o‘rganuvchi fan. Didaktika ta’lim nazariyasi bilan shug‘ullanadi. “Didaktika“ atamasi ilk bor Yevropada 17-asrda o‘qitish va ta’lim jarayoni haqida asarlar yaratgan olimlar tomonidan qo‘llanila boshlagan. Chex pedagogi Yan Amos Komenskiy o‘zining “Buyuk didaktika” asarida 1657-yil bolalar va o‘smirlarni ma’lumotli qilish va ularga ta’lim berishning didaktik jihatlarini ishlab chiqdi. Didaktikaning fundamental ilmiy asoslari Y.A.Komenskiy tomonidan ishlab chiqilgan. Y.A.Komenskiy didaktikani “hammani hamma narsaga o‘rgatuvchi san’at” sifatida talqin etadi. Shu bois, uning didaktikasida “nimaga o‘qitish?”, “nimani o‘qitish?”, “qayerda o‘qitish?”, “qanday o‘qitish?” kabi savollarga o‘ziga xos tarzda javob berilgan.

Nemis pedagogi Adolph Diesterweg o‘zining “Nemis o‘qituvchilarini o‘qitish uchun yo‘riqnoma” 1834-35-yillarda didaktikaning pedagogikada ta’lim nazariyasini bayon etuvchi alohida qism ekanligini ta’kidlagan. Shundan keyin didaktikaga ta’lim nazariyasi haqidagi fan sifatida qarash keng yoyildi. 19 asrning so‘ngi va 20 asrning boshlarida didaktikaga oid maxsus monografiyalar yaratila boshlandi.

Didaktika - ta’lim jarayoni, uning mazmuni, qonuniyatlari va tamoyillari, shuningdek shakllari, metodlari va vositalarini ilmiy asoslab beruvchi ta’lim nazariyasi, pedagogikaning alohida sohasidir. Bu termin 1571-1635-yillarda nemis pedagogi V. Ratke tomonidan uning “Didaktika yoki ta’lim san’ati” deb nomlangan ma’ruzada 1613-yil fanning nazariy va metodologik asoslarini tadqiq qiluvchi ilmiy yo‘nalish sifatida qo‘llanilgan.

Buyuk allomalarimiz: Muhammad Al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy asarlarida ham ta’lim, o‘qitish va o‘qishga oid sharqona didaktik qarashlar aks etgan.

Asta-sekin didaktikada pedagogik nazariy jihatlar mustahkamlana bordi: konseptual apparat, nazariy yondashuvlar, belgilandi, qonuniyatlar shakllantirildi. Didaktikani o‘qitish nazariyasi sifatida tushunila boshlandi. Ta’limning bitta

to'g'ri nazariyasini yaratish orqali samarali o'quv jarayonini ishlab chiqish mumkin deb hisoblandi. I. J. Lerner bunday nazariya haqida quyidagilarni gapirdi: Hozirgacha didaktika bilimlarning ajralmas tizimini anglatmaydi, ya'ni didaktik bilimlarning har bir bloki (yoki birligi) avvalgisidan kelib chiqmagan va keyingilarini aniqlamagan. U ta'lim mazmunini tanlashni belgilaydigan umumiy didaktik asoslarni shakllantirish, so'ngra mantiqiy konstruksiyalar orqali o'quv jarayonining usullari va shakllariga o'tish mumkin, deb taxmin qildi.

O'zbek milliy pedagogikasi tarixida ham didaktikaning asosiy xususiyatlarini aks ettirishga bag'ishlangan ko'pgina tadqiqotlar mavjud. Garchi turkiy mutafakkirlarning asarlarida didaktika hozirgi nom bilan atalmagan bo'lsada, lekin ular ta'lim jarayonining qonuniyatlarini belgilashi, uni tashkil etishning yo'l-yo'riqlarini ko'rsatishi jihatidan beqiyos ahamiyatga ega. Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Ahmad Al-Farg'oniy, Marg'iloniy, Davoniy, Alisher Navoiy, Munis singari mutafakkirlarning ta'limni uyushtirish, uning samaradorligini oshirish, o'qitish jarayonida o'qituvchi va o'quvchi munosabatlari borasidagi qarashlari jahon pedagogika taraqqiyotining o'ziga xos bosqichini tashkil etadi. Muayyan yoshdagi bolalarni jamoa tarzida bir joyda o'qitishning samaradorligi ilk bor Ibn Sino tomonidan ko'rsatib berilgan bo'lsa, muallimning o'zida ezgu insoniy sifatlar bo'lmasa, bolalarda bunday hislatlarni shakllantirish mumkin emasligi Navoiy asarlarida aks etgan. Marg'inoniy esa, bilimlarni o'zlashtirish yuzasidan umumiy tavsiyalar beribgina qolmay, o'rganilgan tushunchalarni bolalar xotirasida uzoqroq saqlash yuzasidan aniq metodik usullar ham tavsiya etgan.

Didaktik tizimlar umumiy didaktik tushunchalar asosida yoki psixologik, falsafiy, madaniy va b. kabi boshqa tabiatdagi nazariy konstruksiyalar asosida ishlab chiqiladi. Didaktik modellar mazmuni didaktik tizimlar asosida tashkil topgan.

Modelning xususiyatlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- model bilan almashtirish bo'lgan obyektning mavjudligi;

- obyektning muhim bo‘lmagan xususiyatlardan mavhumlashtirish asosida soddalashtirish;

- obyektning muhim xususiyatlarini aks ettirish.

Model diagramma, jadval va algoritmlangan tavsif shaklida taqdim etilishi mumkin. M. V. Klarin xorijiy pedagogikada taklif qilingan konsepsiyani shakllantirish modellarini keltiradi. Shunday qilib, J. Bruner rahbarligida tushunchalarni shakllantirishning kaliti sifatida olib borilgan psixologik-pedagogik tadqiqotlar asosida qurilgan model quyidagi bosqichlarni belgilaydi:

- tushunchalarning nomi;

- ushbu tushunchalar qo‘llaniladigan yoki qo‘llanilmaydigan qarama-qarshi misollar (ijobiy va salbiy);

- tushunchaning belgilari, belgilarning ahamiyati (muhim va muhim bo‘lmagan belgilarni ajratish);

- muhim xususiyatlarga asoslangan konsepsiyani aniqlash.

M. V. Klarin, shuningdek, R. Tennyson va O. Park tomonidan taklif qilingan tushunchalarni shakllantirishning yana bir modelini keltiradi:

- o‘qituvchi tushunchalar tizimini mazmunli tahlil qiladi va o‘rganilayotgan tushunchaning o‘rnini va uning boshqa tushunchalar bilan aloqasini ajratib ko‘rsatadi;

- o‘qituvchi konsepsiyaning ta’rifini, misollar to‘plamini va qarshi misollarni kiritadi;

- o‘qituvchi talabalarni ushbu tushunchaga mos misollarni mustaqil tanlashga yo‘naltiradi. Belgilangan asosiy va tegishli xususiyatlar misollarni tanlash

mezonlari bo‘lib xizmat qiladi.

- o‘qituvchi bolalarga ushbu tushunchalarga mos keladigan yangi misollarni taklif qiladi.

**Didaktikaning boshqa fanlar bilan bog‘liqligi.** Ta’lim jarayoni jamiyat rivojlanishining ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy shart-sharoitlari, odamlar faoliyati

va hayotiy ehtiyojlari, zamonaviy fan-texnika taraqqiyotining yutuqlariga hamma ta'lim oluvchilarning shaxsiy sifatlariga qo'yilgan katta talablarga asoslanadi.

Didaktika sohasidagi natijalar uning oldiga yangi-yangi masalalarni ko'ndalang qo'yadi. Bu muammolarni hal qilish boshqa fan yutuqlaridan maksimal darajada samarali foydalanishni talab etadi.

*Falsafa va sotsiologiya* jamiyat va atrof-muhit rivojining umumiy qonuniyatlari haqidagi fanlar sifatida odamlarning hayoti va faoliyatining ijtimoiy va boshqa o'ziga xos xususiyatlarini xisobga olishda didaktikaga yordam beradi.

*Siyosatshunoslik* ta'limdagi siyosiy hodisalar va jarayonlar bilan bog'liq didaktik masalalarni ochish uchun xizmat qiladi.

*Etnologiya* didaktikaga odamlarning milliy o'ziga xosliklarini to'g'ri hisobga olishda yordam beradi, qaysiki ta'limda milliy tajribalar o'ziga xos xususiyatga ega.

*Pedagogik psixologiya* ta'lim jarayonida bilim, ko'nikma va malakalarni egallash jarayonining psixologik qonuniyatlari va tamoyillarini hisobga olishga imkoniyat beradi.

*Odam fiziologiyasi* ta'lim jarayonida odam tana tuzilishi va nerv tizimining ishlash qonuniyatlarining o'ziga xos xususiyatlari, ularning roli, ahamiyati va o'ziga xos vazifalarni ko'rsatishga yordam beradi.

*Xususiy metodika* alohida predmetlarni o'qitishda ta'limning turli shakl va vositalarini qo'llanishining o'ziga xosliklarini aniq hisobga olishda didaktikaga yordam beradi.

**Didaktikaning obyekti** – ta'lim sohasi, o'qituvchi va o'quvchining mushtarak faoliyati.

**Didaktikaning predmeti** – o'qitish va o'qish jarayonlari: omillari, shart-sharoitlari, natijalari.

**Didaktikaning vazifalari** - kimga, nimani, qachon, qayerda, qanday o'rgatish, o'qitish muammolarini ishlab chiqishdan iborat.

**Didaktikaning asosiy vazifalari.**

- *Bilim* shaxsning ongida tushunchalar, sxemalar, ma'lum obrazlar ko'rinishida aks etuvchi borliq haqidagi tizimlashtirilgan ilmiy ma'lumotlar majmui

- *Ko'nikma* olingan bilimlarga asoslanib qo'yilgan vazifalar va shartlarga binoan bajariladigan harakatlar yig'indisi

- *Malaka* ongli xatti-harakatning avtomatlashtirilgan tarkibiy qismi

- *Ta'lim* o'quvchilarga nazariy bilimlarni berish asosida ularda amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish, ularning bilish qobiliyatlarini o'stirish va dunyoqarashlarini tarbiyalashga yo'naltirilgan jarayon

- *Ta'lim jarayoni* o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda ilmiy bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.

- *Bilim olish* idrok etish, o'rganish, mashq qilish va muayyan tajriba asosida xulq-atvor hamda faoliyat ko'nikma, malakalarning mustahkamlanib, mavjud bilimlarning takomillashib, boyib borish jarayoni

- *Ta'lim jarayoni* o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda ilmiy bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon

- *Dars* bevosita o'qituvchi rahbarligida muayyan o'quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta'lim jarayonining asosiy shakli

- *O'quv fani* ta'lim muassasalarida o'qitilishi yo'lga qo'yilgan hamda o'zida muayyan fan sohasi bo'yicha umumiy yoki mutaxassislik bilim asoslarini jamlagan manba

- *Ta'lim mazmuni* davlat ta'lim standartlari asosida belgilab berilgan hamda ma'lum sharoitda muayyan fanlar bo'yicha o'zlashtirilishi nazarda tutilgan ilmiy bilimlar, shuningdek, shaxsning aqliy va jismoniy qobiliyatini har tomonlama rivojlantirish, dunyoqarashi, odobi, xulqi, ijtimoiy hayot va mehnatga tayyorlik darajasini shakllantirish jarayonining mohiyati

- *Ta'lim tizimi* yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish yo'lida davlat tamoyillari asosida faoliyat yuritayotgan barcha turdagi o'quv-tarbiya muassasalari majmui

- *Ta'lim maqsadi (o'qish, bilim olish maqsadi)* ta'limning aniq yo'nalishini belgilab beruvchi yetakchi g'oya

- *Ta'limni boshqarish* ta'lim muassasalarining faoliyatini yo'lga qo'yish, boshqarish, nazorat qilish hamda istiqbollarini belgilash

- *Ta'lim jarayonining ta'lim berish funksiyasi* o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat.

- *Ta'limning rivojlantiruvchi funksiyasi* ta'lim jarayonida bilimlarni o'zlashtirish jarayonida o'quvchining rivojlanishi sodir bo'lishini ifodalaydi.

- *Ta'limning tarbiyalash funksiyasi* turli ijtimoiy tuzum hamda sharoitda ham yaqqol namoyon bo'lib, ta'lim mazmuni, shakli va metodlarining mohiyati bilan belgilanadi va o'qituvchi hamda o'quvchilar o'rtasidagi munosabatlarni tashkil etish jarayonida yetakchi o'rin tutadi.

**Didaktik vositalar va tarqatma materiallar** – bu fanni o'qitishda zarur bo'lgan jihozlar, kompyuterli vositalar, modellar va maketlar, ko'rgazmalar va texnik vositalar, asbob – uskunalar va mahsulotlardir. Shuningdek, o'qitish jarayonida o'qituvchi tomonidan qo'laniladigan tarqatma materiallardir. Ular: kartochkalar, savolnomalar, yo'riqnomalar, qiziqarli savol va topshiriqlar, amaliy ishni tashkil etish bo'yicha texnologik xaritalar va hako زالardir.

*Didaktik materiallar* – pedagog tomonidan har bir darsga alohida tayyorlangan, dars mazmunini to'la ifodalash va o'quvchi – talabalar dars mazmuniga yaxshi tushunib yetishlari uchun xizmat qiladi, deb qayd etiladi. Bularga turli ko'rgazmali qurollar, turli muammoli vaziyatlarni yaratuvchi moslamalar, o'yinlar va hako زالar kiradi. Didaktik materiallar ham didaktikaning tamoyillariga mos ravishda yaratiladi. Dars jarayoni faqat usul va uslublar orqali amalga oshirilib, darsning ajralmas qismi hisoblanadi. Pedagogsiz va talabasiz hamda o'quv dasturi va rejasiz dars o'tib bo'lmagani kabi, pedagogik usullar va uslublarsiz darsni amalga oshirib bo'lmaydi.

**Didaktik qobiliyat** – o'quv materialini, ko'rgazmali qurollar va vositalarini tayyorlab qo'yish, o'quv materialini aniq, ifodali va izchil bayon qilish,



o'rganishga bo'lgan qiziqish hamda ma'naviy, hissiy istaklarni rag'batlantirish, o'quv bilimni oshirish, faollashtirish mahoratlari majmuidan iboratdir.

**Xulosa:** Xulosa qilib aytganda, didaktika ta'lim tizimini rivojlantirish, ta'lim jarayonini takomillashtirish va innovatsion usullarni qo'llash orqali o'quvchilarning bilim darajasini oshirishga va o'quvchilarni har tomonlama kamol topgan shaxs sifatida shakllantirishga va jamiyat talablariga mos ta'lim jarayonini tashkil qilishda muhim ahamiyatga ega. Didaktika ta'lim jarayonining barcha jihatlarini chuqur o'rganadi va amaliyotda qo'llash yo'llarini belgilaydi. Shu sababli, u nafaqat pedagogika, balki boshqa ijtimoiy fanlar bilan ham uzviy bog'liq.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. D.B.Norqo'ziyev, F.B.Bayjanov, M.B.Ongarov Pedagogika nazariyasi va tarixi 2024-y.
2. M.Tashibekova, M.Nishonov, Q.Shodmonov. Umumiy pedagogika 2023-y.
3. Ziyomhammadov B. Pedagogika. O'quv qo'llanma. – Toshkent: 2006-y.